



PAPER

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING HUQUQIY ASOSLARI, PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Roziqova Ra’no Rustamovna ^{1,*}

¹Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

* ranorziqova95@mail.ru ORCID ID: 0009-0000-4080-6568

Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, 2020–2025-yillarda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son qarori va Vazirlar Mahkamasining VM-838-son qarori mazmuni o‘rganildi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv muhitga tayyorlash jarayonida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va psixologik tayyorgarlikning uzviy integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanish va ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishi asoslab berildi.

Key words: inklyuziv ta’lim, huquqiy asoslar, pedagogik kompetensiya, individual ta’lim rejasi, maxsus pedagogika, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

KIRISH

Respublikamizda inkluziv ta’limni davlat siyosatining bir qismiga aylantirish, tezkorlik bilan rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritish muhim vazifadir.

2020-yilda Prezidentimizning qarorlari bilan O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va yo‘l xaritasi tasdiqlangan. Mazkur hujjat 2020-yil 13-oktabrda PQ-4860 sonli qarori bilan qabul qilingan. Shu qarorga asosan quyidagilar:

2020–2025-yillarda ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi;

2020–2021-yillarda konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ham tasdiqlandi;

Ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirildi;

Mazkur hujjatlar asosida 2021–2022-o‘quv yilidan boshlab tajriba tariqasida bir qator umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim joriy etila boshlandi. Bunga qo‘shimcha ravishda

Compiled on: March 14, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

inklyuziv ta'limdagi o'quvchilar bilan ishlash, ularni malakalarini yuksaltirish kabi vazifalarga ham e'tibor qaratilgan. O'qituvchilarni inklyuziv kompetensiyaga ega qilib tayyorlash PQ-4860 sonli qarori mazmuni bo'yicha inklyuziv ta'lim joriy etilayotgan maktablarda ishlaydigan o'qituvchilarga maxsus bilim berilishi zarurligi belgilangan. Ular:

Nogironligi yoki maxsus ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikalari;

Individual dars rejalari tuzish va moslashtirish;

Psixologik-pedagogik yondashuvlar bo'yicha o'qitish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, qarorda pedagogik kadrlar, jumladan maxsus pedagog kadrlar, jumladan maxsus pedagoglar, psixologlar va inklyuziv ta'lim bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash ham rejalashtirilgan. Buni amalga oshirish uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qituvchilar uchun metodik materiallar tayyorlash va maxsus treninglar tashkil etilishi lozimligi belgilangan. Bu jarayon yo'l xaritalarida va konsepsiyalarda belgilangan maqsadli indikatorlar orqali nazorat qilinishi qo'shimcha qilingan.

Bundan tashqari, PQ-4860 qarori bilan birgalikda, uni amaliyotga tatbiq etish uchun keying VM-838 sonli qarori (2021) ishlab chiqildi, u inklyuziv ta'lim bo'yicha normativ hujjatnitasdiqlaydi, shuningdek, boshqa chora-tadbirlar ham 2024-yilda qabul qilindi, ta'lim tizimida ishlaydigan xodimlar uchun metodik qo'llanmalar va kurslar ishlab chiqish belgilab qo'yilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi qaror va hijjatlar asosida bo'lajak pedagoglarni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga, bilim, ko'nikma va munosabat jihatdan tayyorlash ketma-ketlikda, ilmiy-amaliy, to'g'ri va tartibli olib borilishi zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Eng avvalo bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik oliygohlarda ta'lim olishi jarayonida o'quv dasturlarini inklyuzivlashtirish. Shuningdek, inklyuziv ta'limga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish uchun "Inklyuziv ta'lim asoslari", "Maxsus pedagogika", "Differensial va individual ta'lim" kabi fanlarni majburiy kiritish va ularni o'zlashtirishni alohida e'tiborga olish talab etiladi. Natijada, bo'lajak pedagoglar yetarli nazariy

bilimlar bilan qurollanadi va ularni amaliyotga qo'llash uchun samarali foydalanadi. Nazariy fanlarni o'qitish bilan bir vaqtda amaliyotni ham birgalikda olib borish ham juda zarur. Bu orqali talabalarda maxsus pedagogik kompetensiyalar shakllanadi. Ularni amaliy jihatdan tayyor bo'lishlari uchun quyidagicha amaliy ish va usullarni tuzishga undash yoki birgalikda ishlab chiqish mumkin.

Individual ta'lim rejasini (ITR) tuzish;

Darsni moslashtirish- metod, baholash va topshiriqlar orqali;

Turli nogironlik turlari bilan ishlash usullarini qo'llash yoki tuzish. Bu amaliy darslar davomida talabalar amaliy jihatdan tayyorgarligi ortadi, har qanday alohida ta'limga muhtoj o'qituvchi uchun darslarni individuallashtira olish ko'nikmalari rivojlanadi.

Nazariy va amaliy bilimlar shakllantirilgandan keyin ularni amaliyotga yo'naltirilgan tayyorgarlikdan o'tkazish uchun talabalarni inklyuziv maktablarda pedagogik amaliyot, real sinfda maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash, tajribali mentor-o'qituvchi kuzatuv ostida alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlash yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish. Bu bosqichning natijasi- nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotda qo'llab sinovdan o'tkaziladi, real muhitda tajriba orttiriladi, malakalar hosil qilinadi. Alohida ta'limga ehtiyojmand balalarni o'qitish faqat pedagogik emas balki psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarda maxsus psixologiya fanlarini o'qitish, empatiya va bag'rikenglikni rivojlantirish, stress va ish jarayonlaridagi konfliktni boshqarishni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagogni inklyuziv ta'limga ruhiy jihatdan tayyorlash jarayoni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda tashkil etilganda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, talabalar o'z kasbiy faoliyatida alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar bilan ishlashga nisbatan ishonch, mas'uliyat va empatik yondashuvni namoyon eta boshladilar. Psixologik tayyorgarlik elementlari joriy etilgan guruhda stressga bardoshlilik, pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholash va muammoli holatlarda konstruktiv qaror

qabul qilish ko'nikmalari shakllangani aniqlandi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishdagi muhim natijalardan yana biri — talabalarni metodik qo'llanmalar, adaptiv dars ishlanmalari, ko'rgazmali va texnik vositalar bilan ta'minlash samaradorligining tasdiqlanishidir. Metodik va resurs ta'minoti mavjud bo'lgan sharoitda talabalar dars mazmunini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, topshiriqlarni differensiallashtirish hamda baholash mezonlarini adolatli qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, metodika va resurslar bilan ta'minlangan pedagoglar darsni samarali rejalashtirish, inklyuziv sinf muhitini tashkil etish hamda har bir o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligini ta'minlash bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdilar. Bu esa inklyuziv ta'limning amaliy samaradorligini oshirishda tizimli tayyorgarlik va yetarli metodik bazaning hal qiluvchi omil ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama

Olingan natijalar inklyuziv ta'lim samaradorligi uch asosiy komponentga bog'liqligini ko'rsatdi:

1. Nazariy tayyorgarlik – huquqiy va pedagogik bilimlar;
2. Amaliy tayyorgarlik – real muhitda tajriba;
3. Psixologik tayyorgarlik – empatiya va tolerantlik.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (seminar, trening, onlayn kurslar) inklyuziv muhit barqarorligini ta'minlaydi.

Alohida ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlaydigan pedagoglarning malakasini oshirish va uzluksiz ta'limni ta'minlab berish, buning uchun treninglar, seminarlar, onlayn kurslar (hayot davomida o'qish tamoyili) tashkil etish va ularning samaradorligini nazorat qilib borish kerak. Buning natijasida esa pedagoglar bilimi doimo yangilandi, ta'lim zamon talabiga moslab olib borilishiga ham erishiladi.

Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda ijtimoiy hamkorlik mexanizmi ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy hamkorlik mexanizmiga psixolog, logoped va defektolog bilan jamoaviy ish, ota-ona bilan hamkorlik kabilarni kiritishimiz mumkin. Bu mexanizm bilan ish olib borish natijasidan inklyuziv muhit to'liq va samarali ishlaydi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining VM-838-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
4. Inklyuziv ta'lim bo'yicha milliy konsepsiya hujjatlari.
5. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot Yangi Chirchiq Book 2022-y